

Qabul qilindi: 26.07.2024

Chop etildi: 30.08.2024

UDK: 8.82

## CHARLZ DIKSENSNING “OLIVER TWISTNING SARGUZASHTLARI” ASARINING KOMPOZITSION TAHLILI

*Abdullayeva Umida Raxmatovna, Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlato‘zbek tili va adabiyoti universiteti 1-bosqich  
tayanch doktoranti*

### ANALYSIS OF NOVEL COMPOSITION OF “OLIVER TWIST” BY CHARLES DICKENS

*Abdullaeva Umida Raxmatovna, PhD student, Alisher  
Navoi Tashkent State University of Uzbek language and  
Literature*

### АНАЛИЗ КОМПОЗИЦИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЧАРЛЬЗА ДИККЕНСА «ОЛИВЕР ТВИСТ»

*Абдуллаева Умида Рахматовна, докторант 1-курса,  
Ташкентский государственный университет узбекского  
языка и литературы имени Алишера Навои*



<https://orcid.org/0000-0002-3904-0822>

e-mail:  
[abdullayevaumida0989@gmail.com](mailto:abdullayevaumida0989@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada ingliz yozuvchisi Charlz Dikens qalamiga mansub “Oliver Twistning sarguzashtari” asarining xarakteri, maqsadi va mazmuni jihatidan bog‘langan qismlarini o‘rganish va syujetning tarkibi muhokamasi bayon etilgan. Mehnat uyida tug‘ilgan bolaning sarguzashtlari badiiy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** syujet, asar, tahlil, voqea rivoji, tasvir, Oliver, Mehnat uyi, otaliq.

**Abstract:** This article reveals some plot analysis of the novel “Oliver Twist” by English writer Charles Dickens, significance of masterpiece in terms of characteristic features, intentional aspects and cohesive sequence of events. The novel itself tells about the harsh life of orphan child, Oliver Twist.

**Key words:** plot, novel, analysis, rising action, character, Oliver, workhouse, be apprenticed.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается композиционный анализ по роману английского писателя Чарльза Дикенса «Оливер Твист», в котором описывается тяжёлая жизнь маленького мальчика. Сюжет романа анализируется по содержанию и с точки зрения характера персонажей.

**Ключевые слова:** сюжет, роман, анализ, развитие событий, образ, Оливер, рабочий дом, опекуство.

**KIRISH.** Biror bir asar yaratilar ekan, yozuvchi o‘z his-tuyg‘ularini, qalb kechinmalarini o‘quvchiga yetkazishni vazifa deb biladi. Holbuki, xalqning kemtik nuqtasini, ijtimoiy hayotdagi muammolarini, insonlardagi mehr va qahr tuyg‘usi va shu kabi inson hayotida duch keladigan kechinmalarni yozuvchi voqealar rivoji orqali asarlarida ask ettiradi. Shunday asarlar sirasiga Ingliz yozuvchisi Charlz Dikensning sonsiz

muhokamalarga sabab bo‘lgan, shu bilan birgalikda, jurnalda oyda bir marotaba nashr qilinadigan har bir qismini intizorlik bilan kutgan o‘quvchilar e’tirofiga tushgan, jahonga mashhur badiiy meros hisoblanuvchi “Oliver Twistning sarguzashtlari”dir. Dikens asar yozilgan vaqtdagi xalqning hayot tarziga zid bo‘lgan qonunlar va Mehnat uylaridagi haqiqiy hayot, bolalarning yosh paytidan og‘ir mehnatga jalb qilinishini batafsil bayon qiladi.

Dikens Oliverning sarguzashtlarini asardagi boshqa qahramonlarning hayot yo'llari bilan kesishgan voqealar, hikoyalarga bog'lab aytib beradi. Manbalarda keltirilishicha, bolaligida Dikens iqtisodiy ishonchsizlik va xo'rlikdan aziyat chekkan, bu qashshoqlik va umidsizlikni his qilgan paytlarini Oliver orqali tasvirlaydi. Dikens "Oliver Tvistning sarguzashtlari"da aks ettirgan London ko'chalari, u yerda yashaydigan tub aholi, odamlarning turli munosabatlari, maqsadlari, kechinmalari bilan tanish edi. Londonda yashayotgan faqirlarning ahvolidan hamda cherkov tomonidan boshqariladigan Mehnat uylaridan ham xabardor edi. Oliver romanning boshidanoq o'zi tug'ilgan kichik jamiyatdagi a'zolar tomonidan qabul qilinmagan, dunyoga kelishi bilan yirtiq, eskirib ketgan yopinchiq bilan o'ralgan, och-nahorlikda kun ko'rgan. Odatda oilada chaqaloq tug'ilsa, u xurchandchilikda kutib olinadi, onasining issiq bag'rida erkalanadi, chiroyli, yangi sotib olingan, dazmollangan kiyimlar kiydirishadi, belanchakka yotqizib allalar tinglaydi. Shuningdek, Oliverni sarguzashtlari davomida, u atrof-muhitni kuzatadigan, tozalikka ahamiyat beradigan, pozitiv yoki negativ hissiyot qabul qilayotganiga izoh berib ketadigan xarakter sifatida tasvirlangan. Oliver halolligi va mehribonligi tufayli, o'zi orzu qilgan taqdirini topadi va turli xil do'stlarga ega bo'ladi. Bu syujet asar kompozitsiyasida muhim ahamiyat kasb etib, uning strukturasi ta'sir ko'rsatgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.** **Ekspozitsiya** syujet unsurlarining boshlanish qismi bo'lib, kitobxonga asar qahramonlari haqida ilk ma'lumotlarni, ular yashayotgan joyning shart-sharoitlarini, konflikt kelib chiqqunga qadar bo'lgan voqealar rivojini taqdim etadi<sup>1</sup>. Asarda badiiy yuk tashuvchi bosh va ularni bir-biriga ulovchi yordamchi obrazlar, ular esa o'z o'rnida birgalikda syujetning yaxlitligini ta'minlaydi. "Oliver Tvistning sarguzashtlari" asarining birinchi bobi Oliverning Mehnat uyida dunyoga kelishi va onasining vafoti bilan boshlanadi. Baxtga qarshi, Oliverning onasi ijtimoiy kelib chiqishi, oilaviy ahvoli, qon-qarindoshlari haqida ma'lumot bera olmaydi, chaqaloq esa to'yib ovqatlanmas, shart-sharoiti mavjud bo'lmagan fermada to'qqiz yoshigacha yashadi. Biroq Oliver

tabiatan juda mehribon va minnatdorlik hissi mavjud bo'lganligi uchun, o'zi yashagan fermani tark etayotganda uni g'am-g'ussa chulg'ab oladi. Bu quyidagi parchada aks etgan:

*"This was no very great consolation to the child. Young as he was, however, he had sense enough to make a feint of feeling great at going away. It was no difficult matter for the boy to call tears into his eyes. Hunger and recent ill-usage are great assistants if you want to cry; and Oliver cried very naturally indeed. Mrs. Mann gave him a thousand embraces, and what Oliver wanted a great deal more, a piece of bread and butter, less he should seem too hungry when he got to the workhouse" (Oliver Twist, p.14).*

Parchada tasvirlangan voqea, Oliverning oliyanobligi, beg'uborligi va sodda ekanligini ko'rsatgan, vaholanki, u fermada qo'lidagi saryog' surilgan nonni tushidagina ko'rar, Mann xonimning asl maqsadini hattoki sezmaydi ham. Nochorlikda kun kechirgan bolakay, Mehnat uyiga yana qaytar ekan, u boshidan kechirganlari quyidagicha eslab o'tiladi:

✓ Fermada yashagan Oliver shu yoshigacha yagona mehrlil so'z yoki qarash ko'rmaganini;

✓ Oliver yolg'izlik atalmish hissiyotni murg'ak qalbida tuyganini;

✓ Bolalikdagi do'stlari nochorlikda yashashga majburliklarini o'ylab, janob Bambl bilan Mehnat uyiga ham yetib kelishadi.

"Oliver Tvistning sarguzashtlari"dagi **konfliktning urug'i** o'g'rilikni kasb qilib olgan, bolalarni cho'ntak o'g'risi sifatida tarbiyalab, o'zi uchun mo'maygina boylik, chiqimlari uchun pul orttirish maqsadida, Oliverni ham to'da a'zosi qilmoqchi bo'lgan Feygin (Fagin)ning sa'y-harakatlari va bir nechta sheriklari bilan Oliverni o'g'rilik ko'chasiga kiritish, keyinchalik esa uni o'limga hukm qilish edi. Qo'shimcha qilib shuni ta'kidlash mumkinki, Oliverning ota-onasi haqidagi ma'lumotlar ham mavjud emasligi, onasi haqidagi uydurma gaplar Oliverni shaxsiyatiga tegar edi. U Mehnat uyidan quvilib, janob Saverberri (Mr. Sowerberry) tobut yasovchining otalig'iga olinib, Noa Kleypoul (Noah Claypole) tomonidan haqoratga uchraydi.

<sup>1</sup> D.Quronov "Adabiyotshunoslikka kirish -T.: "Fan" nashriyoti, 2007, 104-b.

“Yer know, Work’us’, continued Noah, emboldened by Oliver’s silence, and speaking in a jeering tone of affected pity, of all tones the most annoying: ‘Yer know, Work’us, it can’t be helped now; and of course yer couldn’t help it then; and I am very sorry for it; and I’m sure we all are, and pity yer very much. But yer must know, Work’us, yer mother was a regular right-down bad’un’

‘What did you say?’ inquired Oliver, looking up very quickly.

‘A regular right-down bad’un, Work’us,’ replied Noah, coolly. ‘And it’s a great deal better, Work’us, that she died when she did, or else she’d have been hard laboring in Bridewell, or transported, or hung; which is more likely than either, isn’t it?’ (Oliver Twist, pp 65-66).

Yetimlikda katta bo‘layotgan Oliver uchun bu haqoratli so‘zlar muloyim boladan, jiddiy munosabat ko‘rsatuvchi, sha’ni uchun kurashuvchi qahramonga aylanadi. G‘azab otiga mingan Oliver, o‘zidan anchayin baquvvat, yosh jihatidan ham katta bolaga qarshilik ko‘rsatishi sababli Saurberi xonim otalig‘idagi bolani qattiq jazolaydi. Bo‘lib o‘tgan voqea Oliverni tobut yasovchining uyini tark etish kerakligiga, nohaqlikka ko‘z yuma olmaslikka undab, shaharga qochish rejasi uyg‘ondi. Quyida keltirilgan tugunlar xotimada o‘z haqiqatini topadi.

Voqealar rivoji orqali muallif quyidagilarni bayon qiladi:

1. Qahramonning boshidan kechirayotganlariga nisbatan ruhiy ahvolini kitobxonga tanishtiradi;
2. Qahramon xarakterining murakkab jihatlarini ochiladi;
3. Oliver Tvist psixologiyasi yordamchi obrazlar orqali ko‘rsatiladi;
4. Yozuvchi tomonidan bosh qahramon shaxsiyati bilan bog‘liq voqealar rivoji tasvirlanadi.

“Oliver Tvist sarguzashtlari” asarida **voqealar rivoji** kitobxonda ko‘p savollar paydo bo‘lishiga, Oliverning hayoti haqidagi tashvishlariga, ijtimoiy o‘zgarishlar qahramonlarning sarguzashtlaridagi chuqur tahliliga sabab bo‘ladi. Darhaqiqat, bosh qahramon yovuzlikning yuzaki tomonlari bilan tanishar ekan, mehribon insonlarga ham duch keladi, o‘zining kamtarona xulq-atvori, xushmuomalaliligi, xushfe‘lligi bilan Janob Braunlou (Mr. Brownlow), Bedvin xonim (Mrs. Bedwin), Meyli xonim (Mrs

Maylie, Rouz (Rose), Janob Losbern (Mr. Losberne) kabi oliyjanob odamlar bilan uchrashib, Oliver o‘zi xohlagan, chiroyli taomlanish, ozoda kiyinish, toza xonalarda dam olish, kitob mutolaa qilish, ilmli bo‘lish, eng asosiysi, mehribonlik topadi.

Londonga yetib kelib, tugun atrofida birlashgan obrazlar voqeaning boshqacha tus olishiga xizmat qilib, Oliverning o‘g‘rilar to‘dasiga qo‘shilishi, ularning kasbiga no‘noqligi uchun politsiya mahkamasiga borib qolishi, Janob Braunlou xonadonida yashashi Oliverning to‘qqiz yillik qiyinchiliklarini ozgina bo‘lsa ham unutishga yordam berdi. Nensining yordami bilan Oliver yana Feygin to‘dasiga qaytarilganda, Oliverni qulfbuzar o‘g‘rilikka tortgan Sayks (Sikes) uni yarador ahvolda tashlab ketadi. Yana Oliverga baxt kulib boqib, Meyli xonim xonadonida halovat topadi. Biroq, biroz vaqt o‘tgach Oliverni hatto Mayli xonimning shahar tashqarisidagi uyida ham Janob Bamblning nokasligidan yoki Feygning hiyla-nayrangidan xavfsiz bo‘lolmay, Monks ismli kimsaning meros ilinjida tuzgan rejasiga aralashib qoladi.


**NATIJALAR. Asarning kulminatsiyasi** har bir kitobxonni voqealar rivojiga qiziqishini orttirib, qahramonlarning keyingi taqdirini bilishga undaydi. Afsuski, rejalar fosh bo‘ladi, o‘g‘rilar to‘dasida bo‘lgan, yoshligidan Feygin va Sayksni chizgan chizig‘idan chiqmagan Nensi, Oliverga yordam berish uchun, Rouz va Janob Braunlougacha barcha haqiqatlarni, Feygin va uning sheriklarining rejalarini aytib beradi. Bu voqea kitobxonni voqea syujetiga qiziqtirib qo‘yadi. Asar kulminatsion nuqtasi, rejalar fosh bo‘lishi, xiyonati tufayli Sayks Nensining qotili bo‘lgani va oqibatda Sayks ham o‘zini osib qo‘yishidir. Fikrimizcha, ko‘pchilik kitobxonlar, Sayksni badjahl, cho‘rtkesar, badfe‘l deb hisoblaydilar, lekin uni hech kim qotil obrazida tasavvur qilmagan. Nensining Sayksga yulvorib, uni o‘ldirmaslikni aytsa ham Sayks g‘azab otidan tushmaydi:

‘Bill’ cried the girl, striving to lay her head upon his breast, ‘the gentleman and that dear lady, told me tonight of a home in some foriegn country where I could end my days in solitude and peace. Let me see them again, and beg them, on my knee, to show the same mercy and goodness to you; and let us both leave this dreadful place, and far apart lead better lives, and forget how we have lived, except in prayers and never see each other more. It is never

*too late to repent. They told me so - I feel it now – but we must have time – a little, little time* (Oliver Twist, pp 560-561).

Parchada Rouz va Janob Braunlou tomonidan Nensiga yaxshi imkoniyat taqdim etilgan aks etgan, biroq Nensi Monksning rejasini fosh qilganda Sayksni mazkur ishlarda ayblamasliklarini aytgan. Afsuski, u ko‘rgan tush ro‘yobidan kelib, hayoti xavf ostida qoladi. Vahimaga tushgan Sayks voqea joyini tark etib, bir necha kun davomida ko‘chada yashaydi, ammo bir kuni olomon unga yetib kelganda, u arqonda tebranib, tom tepasidan qochishga harakat qiladi, lekin u arqonni o‘ziga bog‘lamoqchi bo‘lganida, o‘lgan Nensining tikilib turgan ko‘zlari uni vahimaga solib, muvozanatni yo‘qotadi; ilmoqli arqon uni bo‘ynidan ushlab, osib qo‘yadi.

**MUHOKAMA.** Kitobxonlarni qiynagan barcha savollar o‘z javobini topgan **yechim** – bu Oliverning ijtimoiy kelib chiqishi, ota-onasining hayoti, Monks esa uning ota bir, ona boshqa akasi



va Rouz Oliverning xolasi ekanligi, Janob Braunlou Oliverning otasi Edvard Liford yosh, go‘zal qizga ikkinchi bora uylanganini, uzoq safaridan oldin o‘z mol-mulkini ikkinchi ayoliga va Monksga xatlab bergani, va Feyginning qatl etilishidir. Yana bir haqiqat, Monks Oliverni merosdan mahrum qilish uchun, Feygin bolani to‘daga qo‘shib, merosga noloyiq, bezori sifatida ommaga namoyon etishi rejasi ham fosh bo‘ldi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, asar qahramoni his qilgan tuyg‘ular, hayotga nisbatan teran qarashlari, uni mazmunli yakunga olib keldi. Berilgan chizma kitobxonlarni asarning qisqacha bayoni bilan tanishtirar ekan, Oliver

boshidan o‘tkazganlarini kitobda mazmunli matn orqali, barcha voqealar tasnifi ochiq ko‘rsatilgani mutolaa qilgandan so‘ng o‘z xulosalarini qilishga yordam beradi.

Charlz Dikkensning ushbu asarida yaxshilik g‘alaba qilar ekan, barcha qahramonlarning keyingi taqdirlari ham kitobxonlarga taqdim etiladi. Asar so‘ngida Rouz va Heri Meylining (Harry Maylie) turmush qurishi, Meyli xonim o‘g‘li va kelini bilan baxtli yashashi, barcha o‘z maqsadiga yetishi hikoya qilib berilgan. “Oliver Twist sarguzashtlari”ning asosiy qahramoni oqko‘ngil, mehribon Oliver esa, janob Braunlou tomonidan otaliqqa olinib, ular birgalikda otasi yashagan uyiga ko‘chishadi. Janob Braunlouning qistovi bilan, janob Liford vasiyatiga ko‘ra, butun meros Oliverniki bo‘lsa ham, mol-mulk ikki qismga bo‘linadi. Biroq Monks merosdan o‘z ulushini olishiga qaramasdan, qing‘ir yo‘lga kirib, hayotining qolgan qismini qamoqda o‘tkazdi. Asarning so‘nggi bo‘limi yozuvchining inson mehri nimalarga qodir ekanligini ta‘kidlash bilan tugatgan.

*I have said that they were truly happy; and without strong affection and humanity of heart, and gratitude to that Being whose code is Mercy, and whose great attribute is Benevolence to allthings that breathe, happiness can never be attained* (Oliver Twist, p.641).

**XULOSA.** Darhaqiqat, inson qachon ulug‘lanadi, qachon ishonch bildiriladi, boshqalar uning ko‘ngli tozaligini, mehr ulashuvchanligini o‘z harakatlari bilan ko‘rsatsa, unga ham samimiy javob qaytadi. Asarni o‘qir ekansiz, qanchalik nochor, qanchalik tubanlikka yuz kelsa ham, Oliver g‘azab otiga minmasdan, qo‘lidan kelguncha sabrli bo‘ladi. Qo‘shimcha o‘rnida, jinoiy to‘da bilan tanishish jarayonida ham muloyimlik bilan, ushbu kasbni o‘rganishini aytgan, yoki Sayks va janob Chitling bilan Meyli xonimning uyini talon-taroj qilish vaqtida ham, hech qanday e‘tiroz bildirmay, ular qanday topshiriq berishsa bajargan va shu kabi voqealar. Shu bilan birgalikda, qahramon mehdaryo insonlar qo‘lida ham yaxshilik, xushmuomalalik va mehr ko‘rdi, bu insonlar jumlasiga, Janob Braunlou, Bedvin xonim, Meyli xonim, Rouz, Nensi, janob Losbern kiradi. Asardagi ijobiy qahramonlar soddadil bolaga yordam qo‘lini cho‘zishdi. Darhaqiqat, toki inson hayotida yaxshilik bor ekan, yovuzlik o‘z intihosini topadi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi,-T.: O‘qituvchi, 1995.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish – T.: “Fan”, 2007.
3. Charles Dickens, Oliver Twist, London: Wordsworth Editions Limited, 2000. URL: [https://en.wikipedia.org/wiki/Charles Dickens](https://en.wikipedia.org/wiki/Charles_Dickens)
4. Kurbanbayeva, M. (2024). . O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotida adolatli jamiyat to‘g‘risidagi ilk tasavvurlar ifodasi. Tamaddun nuri jurnali, 8(59), 78-81.
5. Курбанбаева, М. (2024). Использование русских народных сказок в процессе изучения языка и формирования гуманизма у детей. Tamaddun nuri jurnali, 5(56), 520-522.

